

"O'zkimyosanoat" Ajda Texnik qo'mitaning 4-yig'ilishi bo'lib o'tdi

// 23.01.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajda-texnik-qo-mitaning-4-yig-ilishi-bo-lib-o>



"O'zkimyosanoat" Ajda Texnik qo'mitaning 4-yig'ilishi bo'lib o'tdi

Yig'ilishda "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarining ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish hamda texnik rivojlantirish, standartlashtirish bo'yicha mutaxassislari ishtirok etishdi.

Unda kimyo sohasida texnik jihatdan tartibga solishga oid normativ-hujjatlarni ishlab chiqish hamda yangi texnologiyalar asosida tartibga soluvchi standart hujjatlarni ishlab chiqishning ahamiyati haqida so'z bordi. Shuningdek,



□Tarmoq korxonalari faoliyatida foydalanilayotgan davlatlararo GOST standartlarining aktualligini saqlab qolish;

□Tarmoq korxonalari tomonidan bir turdagi mahsulotlarga bo'lgan standartlarning texnik talablari va nazorat usullari yuzasidan konsensusga erishish;

□2024-2025 yillarda ishlab chiqilishi rejalashtirilgan normativ-texnik hujjatlarni kelishish va O'zbekiston standartlariga yuborish;

□Ichki (sexlar o'rtasida xomashyo sifatida yetkazib beriladigan tashkilot standartlarini) korxonaning ichki hujjati sifatida amalda qoldirish kabi ko'plab muhim masalalar ko'rib chiqildi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati